


*Axmadjonova Mohinur Bahodirovna,
Yuksalish xususiy maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
axmadjonovamohinur492@gmail.com
+99894 947-59-55*


AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ORQALI SO'ZLAR TARKIBINI O'RGANISH VA ULARNI AKT ORQALI TUSHUNTIRISH

ANNOTATSIYA: Son-miqdor maydonining asosiy vazifasi mavjudot, jism hamda narsalarning sonini aniqlash va hisoblashdan iboratdir. Bilamizki, miqdor tushunchasiga deyarli hamma darsliklarda duch kelishimiz mumkin ammo boshlang'ich sinf matematika darsliklarida son-miqdor so'zlari cheklovsiz darajada qo'llanilgan, chunki miqdor tushunchasi asosan, matematika faniga doir darsliklar va qo'llanmalarda ko'p uchraydi. Quyida faqat boshlang'ich sinf darsliklarida keltirilgan son-miqdor sanaluvchi so'zlarning bir muncha shakllarini AKT yordamida tahlil qilamiz hamda ularni boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshlariga moslagan holda tushunarli holda o'yinlar shaklida tushintiramiz.

1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligining "Mening oilam"¹ bo'limida oilangiz tarkibini sanang va ular nomini yozing topshirig'i berilgan bo'lib, uni quyidagi o'yin orqali tushuntirish mumkin:



Yuqoridagi o'yinda oila a'zolari 8 ta bo'lib, ularning har birining nomlari bilan moslashtirish kerak:



¹ Ona tili va o'qish savodxonligi. darslik 1- sinf uchun. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qurbonov, Shokir Tursun. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021 yil

Ushbu bo‘lim orqali o‘quvchilarga oilaga bo‘lgan mehrni, undagi kattalarni hurmat qilish kerakligini, kichiklarni esa, izzatda bo‘lish kerakligi haqida o‘quvchilarga tushunchalar beriladi. Yuqorida ketirilgan o‘yin shaklidagi metodimiz orqali esa, o‘quvchilarda bobo, buvi, amaki, xola kabi qarindoshlarning farqlari haqida ham ma‘lumotlar berilib, ushbu o‘yin orqali ularni bir-biridan farqlab, tushinib olishlari osonlashadi.

2-sinf matematika darsligida “Geometrik shakllar va o‘lshashlarga doir masalalar” bo‘limida quyidagi topshiriq keltirilgan:

Rasmdagi shakllar nechta?

□ – 1 ta
 □ – 3 ta
 △ – 1 ta

JAMI: 5 TA

Ushbu topshiriq boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda mos bo‘lib, undagi shakllar ular har doim duch kelishlari mumkin bo‘lgan, ko‘p ko‘rishadigan narsalar asosida tanlab olingan.

Yuqoridagi topshiriqda o‘quvchilardan shakllarni takrorlash va ularning sonini sanash talab etilmoqda:

- 1ta;
 - 3ta;
 - 1ta.

Quyidagi ketirilgan topshiriq 2-sinf matematika darsligidan olingan bo‘lib, undagi shart quyidagicha:

3 ta sariq koptokcha massasi nechta qizil koptokcha massasiga teng?

2 ta qizil koptokcha = 1 ta sariq koptokcha
 6 ta qizil koptokcha = 3 ta sariq koptokcha

Yuqorida keltirilgan masalaga yechim: agar 1ta sariq koptokcha massasi 2ta qizil koptokchaga teng bo‘lsa, demak 3ta sariq koptokcha massasi 6ta qizil koptokcha massasiga teng bo‘ladi.

Bilamizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari xilma-xillikni, rang-baranglikni, harakatli narsalarga juda qiziqishadi. Shularni inobatga olgan holda darslarda ham xar hil harakatli o‘yinlardan, turli xil rang-barang ko‘rgazmalardan foydalanib dars tashkillansa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda qiziqarli hamda tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun men ham turli xil qiziqarli, harakatli o‘yinlar orqali matematika, ona tili va o‘qish darslari foydalanish mumkin bo‘lgan, o‘quvchilar uchun qiziqarli hamda tushunarli bo‘lgan ko‘rgazmali o‘yinlar yaratishga harakat qildim. Bu o‘yinlarni yaratish vaqtida men asosan Power Point dasturining keng imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qildim.

Matematika faniga oid bo‘lgan harakatli o‘yinlarni asosan 2-sinf matematika darsligiga asoslanib yaratdim, chunki ushbu darslik yangi yaratildi va juda qiziqarli masala, misollarga boydir.

2-sinf matematika darsligidagi ushbu topshiriqni ham o‘yinli tarzda o‘quvchilarga tusuntirishimiz mumkin:



Toshiriqning sharti saybzavotlar hammasi bo‘lib necha kilo ekanligini topish zarur. Uni o‘quvchilarga yuqorida keltirilgan taqdimot orqali tushintirish osonroq bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan taqdimotda sabzavotlarning jami kilosi qancha ekanligi so‘ralgan bo‘lib, u quyidagicha shaklda topilishi mumkin:

Bodring – 20 kg
 Baqlajon - ?, 5 kg ko‘p
 Pomidor - ?, 5 kg ko‘p

Yechish: 1. $20 + 5 = 25$
 2. $25 + 5 = 30$
 3. $20 + 25 + 30 = 75$ **Javob: 75 kg.**

Ushbu javob ham taqdimotda ketirilgan. Faqat undagi amallar ketma-ketlikda, o‘quvchilarga tushunarli bo‘lgan holda yoritilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Safarov.F.S. O‘zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati. Samarqand. - 2004. 3 bet.
2. S.Burxonov., O‘. Xudoyorov., Q.Norqulova., N.Ruzikulova., L.Goibova. 3-sinf matematika darsligi. – Toshkent: Sharq. 2019. To‘rtinchi nashr.
3. So‘z san‘ati xalqaro jurnali, Toshkent-2021, 4-jild, 1 son. SON SO‘Z TURKUMINING BOSHLANG‘ICH SINIF DARSlikLARIDA IFODALANGAN SHAKLLARINI AKT ORQALI TUSHUNTIRISH
<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-1-32>
4. Spanish journal of innovation and integrity. Volume: 05/2022. Teaching the Concept of Quantity to Primary School Students



5. Umumta'lim fanlari metodikasi jurnali, 1- 4 sonlar, 2018-yil.
6. G'ulomov. A. O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi. - Toshkent. 1994. 56 bet.
7. G'afforova T., G'ulomova H va boshqalar. 1-sinfda savod darslari. – Toshkent: Sharq. 1998 .
8. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar: Qarshi/Nasaf. 2008-y.